

**IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARGA TIL O'RGATISHDA ART
TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH
THE USE OF ART-BASED TECHNOLOGIES IN LANGUAGE
INSTRUCTION FOR CHILDREN WITH DISABILITIES**

MamadaliyevaKomila Ramazonovna,
Toshkent amaliy fanlar universiteti maqistranti

Annotatsiya. Ma'lumki, til o'rgatish jarayonida ayniqsa, rivojlanishida nuqsoni mavjud o'quvchilarga til o'rgatish g'oyat murakkabdir. Bugungi kunda chet tillarini o'rganishga bo'lgan talab ortib bormoqda. Bu maqolada chet tillarini, (asosan ingliz tilini) imkoniyati cheklangan bolalarga o'rgatishning sabablari, ahamiyati va unda art texnologiyasidan foydalanish haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, aynan musiqiy va raqs terapiya, o'yin terapiya, imotexnologiya, drama texnologiya, ertak texnologiya, qum texnologiya, izotexnologiyalarning qo'llanishi va ularning beradigan natijalari haqida ham fikr yuritiladi.

Abstract.

It is well known that the process of language teaching is particularly challenging, especially when working with learners who have developmental disabilities. Today, the demand for learning foreign languages is steadily increasing. This article discusses the reasons and importance of teaching foreign languages—mainly English—to children with disabilities, as well as the use of art technologies in this process. Moreover, the application and effectiveness of such art-based approaches as music and dance therapy, play therapy, imotechnology, drama technology, fairy-tale (story) therapy, sand therapy, and izotechnology are analyzed.

Аннотация.

Известно, что процесс обучения языку особенно сложен при работе с учащимися, имеющими нарушения развития. В настоящее время спрос на изучение иностранных языков постоянно растёт. В данной статье рассматриваются причины и значимость обучения иностранным языкам — преимущественно английскому — детей с ограниченными возможностями, а также использование арт-технологий в этом процессе. Кроме того, анализируются применение и результаты таких направлений, как музыкальная и танцевальная терапия, игровая терапия, имотехнология, драматехнология, сказкотерапия, песочная терапия и изотехнология.

Kalit so'zlar. Art terapiya, musiqiy va raqs terapiya, o'yin terapiya, imotexnologiya, drama texnologiya, ertak texnologiya, qum texnologiya,

izotexnologiya, imkoniyati cheklangan, interaktiv, o'yin turlari, musiqiy terapiya, ertakterapiya, izotexnologiya, kinestik texnologiya, dramatexnologiya, qum texnologiya.

Keywords: Art therapy, music and dance therapy, play therapy, imotechnology, drama technology, fairy-tale therapy, sand therapy, izotechnology, children with disabilities, interactive methods, types of games, musical therapy, story therapy, kinesthetic technology, drama technology, sand technology.

Ключевые слова: Арт-терапия, музыкальная и танцевальная терапия, игровая терапия, имотехнология, драматехнология, сказкотехнология, песочная технология, изотехнология, дети с ограниченными возможностями, интерактивные методы, виды игр, музыкальная терапия, сказкотерапия, кинестетическая технология, драматехнология, песочная технология.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim jarayonida yangi metod va yondashuvlar paydo bo'lishi natijasida o'zbek tilida ko'plab zamonaviy pedagogik neologizmlar shakllanmoqda. Xususan, chet tilini o'rgatishda qo'llanilayotgan art texnologiya, drama texnologiya, musiqiy terapiya, o'yin terapiya, ertak texnologiya, qum terapiya, izotexnologiya va imotexnologiya kabi atamalar nafaqat ilmiy muomalaga kirib kelgan, balki imkoniyati cheklangan bolalarga til o'rgatishda samarali metodlar sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu neologizmlar ta'lim jarayonining modernizatsiyalashuvi, inklyuziv ta'limning kengayishi va yangi pedagogik yondashuvlarning joriy etilishi natijasida shakllangan. Masalan, art terapiya atamasi ta'lim va psixologiya kesishgan nuqtasida yuzaga kelib, san'at orqali o'quvchi shaxsini rivojlantirish imkoniyatini ifodalaydi. Ertak terapiya, dramatexnologiya, o'yin terapiya esa tilni emotsional-ta'sirchan, qiziqarli va ko'p kanalli idrok asosida o'rgatishni bildiruvchi innovatsion terminlardir. Imkoniyati cheklangan bolalarda til o'rganish jarayoni murakkab bo'lganligi sababli, aynan shu turdagi art texnologiyalar ularning psixologik, emotsional va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. Kinestetik texnologiyalar, tasviriy faoliyatga asoslangan izotexnologiyalar, sensor-motor rivojlanishni faollashtiruvchi qum terapiyasi kabi metodlar til o'rgatish jarayonini osonlashtirib, o'quvchining nutq faolligini kuchaytiradi. Ushbu art texnologiyalar bilan bog'liq neologizmlar nafaqat metodik yondashuvlarning yangilanishini aks ettiradi, balki o'zbek tilining terminologik bazasini ham boyitadi. Ular pedagogika va lingvistika kesishgan nuqtada shakllanib, zamonaviy ilmiy muhitda o'z o'rnini egallamoqda. Shunday qilib, imkoniyati cheklangan bolalarga til o'rgatishda art texnologiyalarning qo'llanishi metodik jihatdan samarali bo'lishi bilan

birga, o'zbek ilmiy-terminologik lug'at boyligining kengayishiga ham xizmat qilmoqda.

Asosiy qism. Imkoniyati cheklangan bolalarning hammasida aslida yangiliklarni o'rganishga va izlanishga imkoniyatlari turlicha holatda bo'ladi. Sababi ularning imkoniyatlari turli tarafdin cheklangan bo'ladi. Masalan, kimlardir eshitish, kimlardir gapirish yoki harakat taraflama cheklangan bo'lishi mumkin. Ahamiyatli bo'lish kerakki, imkoniyati cheklangan bolalar deb, ularga bilim berish salohiyatini kamaytirmaslik yokida umuman tashlab qo'ymaslik kerak. Albatta, imkoniyati cheklangan bolalar alohida o'qitish va o'rganish metodlariga, alohida muhit va individual yondashishga muhtoj bo'lishadi. Bunday maxsus bolalarni o'qitishda turli ko'zgazma materiallari, didaktik o'yinlart va interaktiv mashg'ulotlar qo'llansa, ularda ilm o'rganishga bo'lgan qiziqish ham ortadi va yaxshi natijalarni ham ko'rsatishadi.

Aynan til o'rgatish bo'yicha ingliz tilini misol qilib oladigan bo'lsak, ingliz tilini o'rgatish - juda interaktiv bo'lishi kerak. Shuningdek, bolalarning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, qo'shiq aytishga, o'ynashga, rasm chizishga, raqsga tushushga yoki berilgan ma'lumotni qanday yetkazilayotganiga e'tibor berish kerak.

Aksariyat hollarda bolalar o'z muammolari va tajribalarini og'zaki bayon qilishda qiynaladilar. Og'zaki bo'lmagan ifodalar esa ular uchun ko'proq qulaydir. Bu, ayniqsa, nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun juda muhim, chunki ularning xatti-harakatlari o'z-o'zidan paydo bo'ladi va ular o'zlarining xatti-harakatlarini aks ettirish qobiliyatiga ega emaslar. Ularning tajribalari to'g'ridan-to'g'ri badiiy obraz orqali "chiqadi". Bunday "mahsulot" ni idrok etish va tahlil qilish oson. Bolaning o'yin faoliyatiga tabiiy moyilligi, bolalar tasavvurining boyligi muhimdir. Shuni inobatga olgan holda, Art-terapiya elementlari bilan tuzatish ishlarini tashkil etishda sinfda o'yin va ijod muhiti yaratiladi.

"Art Therapy" atamasi ikkita so'zning qo'shilmasidan hosil bo'lgan. "Art" inglizcha so'zdan olingan bo'lib- "san'at", "Terapiya" so'zi esa yunoncha "therapeia" so'zidan olingan bo'lib - davolash degan ma'noni anglatadi. Art terapiya- san'at bilan davolash demakdir. Art terapiya- bu san'at va ijodkorlikka asoslangan psixoterapiyaning eng yosh va jadal rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biridir. Bu diagnostika, tuzatish va shaxsning psixologik muammolarini davolashni o'z ichiga oladi. Art terapiya - bu ijodkorlik va turli xil badiiy texnikalarni o'z ichiga olgan psixoterapiyaning eng samarali usullaridan biridir. Art-terapiya yordamida tuzatish eng yumshoq va samarali hisoblanadi. Bu sizga ijtimoiy moslashuv muammolaridan

tortib, bolalarning salohiyatini rivojlantirish bilan yakunlangan turli xil muammolarni hal qilishga imkon beradi. Art terapiyaning asosiy maqsadi bolada o'zini-o'zi bilish jarayonini o'zlashtirish va uning o'zini namoyon qilish qobiliyatini rivojlantirishdir.

"Art terapiya" (art-terapiya) atamasi birinchi bo'lib 1938 yilda Adrian Xill tomonidan sanatoriylarda sil kasalligi bilan og'rigan bemorlarning badiiy mashg'ulotlarini tasvirlashda ishlatilgan. Keyin bu atama terapevtik san'atning barcha turlariga qo'llanila boshlandi. Kasbiy faoliyatning maxsus turi sifatida artoterapiya Ikkinchi Jahon Urushidan keyin Buyuk Britaniyada psixoterapiya bilan bog'liq holda rivojlana boshladi. Ijodkorlikda qasddan o'zini oshkor qilish bilan terapiya Z.Freydning psixoanalizidan, K.G.Yungning analitik psixologiyasidan Moreno psixodramasidan va amerikalik o'qituvchi M.Naumburgning grafik ifodasi bilan terapevtik yordamning dinamik nazariyasidan kelib chiqdi. A.Kopitinning so'zlariga ko'ra, art terapiya turli fanlarni - psixologiya, tibbiyot, pedagogika, madaniyatshunoslik va boshqalarni birlashtirgan fanlararo bilim sohasidir. Uning asosi badiiy amaliyotdir, chunki art-terapiya mashg'ulotlari paytida mijozlar vizual faoliyat bilan shug'ullanishadi. Art-texnologiyalarning maqsadi- bo'lajak defektologlar, alohida yordamga muhtoj bolalarni art texnologiya yordamida ularning hissiy-irodaviy sohasini, bilish jarayonlarini, umumiy va mayda motorikasini rivojlantirishdan iborat.

Zamonaviy art-texnologiya quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:


- **izotexnologiya** - tasviriyl san'at yordamida terapevtik ta'sir: rasm, modellashtirish, badiiy hunarmandchilik va hokazolar;
- **imotexnologiya** - obraz, teatrlashtirish, dramatizatsiya orqali ta'sir o'tkazish;
- **musiqiy terapiya** - musiqani idrok etish orqali ta'sir o'tkazish;
- **ertaktexnologiya** - ertak, masal, afsona orqali nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqiga ta'sir o'tkazish;
- **kinestik texnologiya** - raqs va harakat orqali ta'sir;
- **dramatexnologiya**- imkoniyati cheklangan bolalar o'rtasida teatr spektakllarini sahnalashtirishga o'rgatish;
- **qumtexnologiya**- qum orqali imkoniyati cheklangan bolalarning nutqi hamda bilish jarayonlarini rivojlantirishdan iborat.
- **fototexnologiya**- rasmga tushirish orqali imkoniyati cheklangan bolalarning psixologik holatini barqarorlashtirish, bolalarning diqqatini, nutqini rivojlantirish.
- **o'yin texnologiyasi** va boshqalar.

Ko'p imkoniyati cheklangan bolalarda diqqatni jamlash va harakatlarni muqobil tarzda qaytarish qiyin kechadi. Bunday holatda, pedagog psixologik jihatdan ham bilimlari borligi qo'l keladi. Sababi maxsus bolalarni ma'lum bosim yoki yoki stress bilan ushlab o'tish faqat zararga ishlaydi. Tilni o'rgatayotgan o'qituvchi, turli xil qattiq qoidalarda va bolalarning qilgan xatolarini doimo to'g'irlashdan qochishlari kerak. Sababi maxsus bolalarda oddiy bolalarga qaraganda xatoliklar qilish tez- tez uchraydi va bu ularni demotivatsiya bo'lishlariga olib kelishi mumkin. Imkoniyati cheklangan bolalarda, o'zining holatidan kelib chiqqan holda, leksik yoki grammatik birliklarni tinglab tushunish, rasmlar va o'qib berish orqali tilga qiziqtirish va o'rgatish hozirgi zamonaviy metodikalarni ichiga kiradi. Imkoniyati cheklangan bolalarning aksariyati "Kinestetik" va "Vizual" turdagi o'rganuvchi bolalarga kirishadi. Sababi, shu turdagi bolalarda rasmlar, raqamlar, ushlab tegib ko'rish va ko'rsatilgan harakatlar orqali tez o'rganishadi. Shu sababli imkoniyati cheklangan bolalarga til o'rgatishda art-texnologiyadan foydalanish juda yaxshi samara beradi.

Yuqoridagi bayon etilgan art-texnologiyalar yo'nalishlari imkoniyati cheklangan bolalarga til o'rgatishda korreksion ahamiyatga ega. Har bir turi bolani til o'rganishi bilan birgalikda san'atga bo'lgan qiziqishini ham oshiradi. Imkoniyati cheklangan bolalarni kasb tanlash haqidagi tushunchalarini kengaytiradi.

Masalan, chet tilini o'rgatishda art-texnologiyalarning izotexnologiya yo'nalishida rasmni farqlang yoki rasmdagi narsa-hodisalarning nomlarini chet tilida ayting, ertaktexnologiya yo'nalishida mashhur "Uch bahodir" ertagini chet tilida ayting kabi topshiriqlar beriladi. O'yin texnologiyasi esa bolalarning aqliy qobiliyatini ishlatishga qaratatilgan aralash turdagi o'yinlar hisoblanadi. Bolalarni eng asosiy til bilish jarayonlarni, ya'ni xotirasini, diqqatini, tasavvurini, tafakkurini oshiradi.

Art-texnologiya kursidan o'tib, bola o'zini-o'zi bilish, o'zini ifoda etish, nutqining ravonligi, ijodiy qobiliyatlarining rivojlanganligi, umumiy va barmoqlar harakatchanligining yaxshilanishi va buning natijasida uning ruhiy holati uyg'unlashishiga erishiladi. Til o'rgatish bo'yicha art-texnologiya mashg'ulotlari individual va guruhli shaklda olib boriladi.(rasm)



Rasm. Art-texnologiya mashg`ulotlari shakli Individual art-texnologiya

Bunda defektolog-logoped alohida yordamga muhtoj bolalar, nutqida nuqsoni bor bolalar bilan yakka tartibda mashg`ulot olib boradi. Bunda aniq bitta mavzuda rasm chizishni topshiriq sifatida beradi. Defektolog-logoped nutqida nuqsoni bo`lgan yoki alohida yordamga muhtoj bolalar bilan uzog`i 45 daqiqa yoki 1 soat davomida ishlashi zarur. Bunda vaqtni tanlashda, albatta, bolaning yoshi, individual xususiyatlari inobatga olinadi.

Individual ishlash jarayonida defektolog-logoped bolani har tomonlama rivojlantirish yo`llari ustida ish olib boradi. Bunda bolaning nutq nuqsonlarini bartaraf qilish, barmoqlar harakatchanligini oshirish, bog`langan nutqini art-texnologiyalar orqali rivojlantirish. Shuningdek, bolani yosh davrlaridan kelib chiqqan holda, uning til bilish jarayonlarini shakllantirish ishlari mashg`ulotlar davomida, turli didaktik o`yinlar orqali bartaraf etiladi. Bunda art-texnologiyalarni shunday tanlash lozimki, bola bunda zerikib qolmasligi lozim. Guruhli art-texnologiya holatida butun psixoterapevtik guruh ya`ni mashg`ulotda ishtirok etuvchi bolalar yollanadi. Bolalar soni 8-10 nafardan oshmasligi lozim. Texnologiya jarayoni ikki shaklda tashkil etilishi mumkin:

- tarkibi doimiy bo`lgan yopiq guruh;
- yangi odamlar ishtirok etishi mumkin bo`lgan ochiq guruh.

Bitta mashg`ulotning davomiyligiga kelsak, an'anaviy ravishda u 1,5 dan 3 soatgacha o'zgarib turadi. Bunda ham bolaning yoshi, individual xususiyatlari inobatga olinadi. Guruh mashg`ulotlari har bir ishtirokchining o'ziga xos muhitda cho'mishiga hissa qo'shadi, u yerda hamma bir-biriga ehtiyotkorlik va ehtirom bilan munosabatda bo'ladi, o'z his-tuyg'ularini xotirjam va erkin ifoda etishi va ularni muhokama qilishi mumkin.

Mashg`ulot ishtirokchilari badiiy asarlarni individual, juft-juft yoki guruhli bo`lib yaratishi mumkin. Odatda, topshiriqlarni bajarishdan oldin ham, keyin ham ishtirokchilar kelajakdagi ishlarni birgalikda muhokama qilishadi. U malakali mutaxassis tomonidan nazorat qilinadi. Shu bilan birga, uning nazorati va ishdagi ishtiroki minimallashtiriladi. Ko'pincha, u shunchaki mashg`ulotlarni tashkil qiladi, ularni o'tkazish joyi va vaqtini belgilaydi, ishtirokchilarni qoidalar bilan tanishtiradi.

Art texnologiya usullari: Faol, passiv va aralash bo'lishi mumkin. **Faol usulda** barcha mashg'ulot yangi ijodiy kompozitsiyani loyihalashga qaratilgan. Bola sifat va go'zallikni baholamasdan o'z ijodini voqelikda aks ettirishni o'rganadi. **Passiv usulda** oldindan tayyorlangan san'at turlaridan foydalanish, masalan, musiqiy kompozitsiyani tinglash, hayajonli videofilmlarni tomosha qilish. **Aralash usulda** bola o'zining shaxsiy ijodiy mahsulotlarini loyihalash uchun mavjud bo'lgan badiiy asarlardan foydalanadi.

Art-texnologiyadan foydalanish ijtimoiy moslashuvning eng samarali usuli hisoblanadi. Uning maktabgacha ta'lim sohasiga kiritilishi bolalarga jamiyat hayotida to'liq ishtirok etish, tafakkur ijodi va shaxsning yaxlitligini rivojlantirishga imkon beradi. Bolalar bilan ishlashda art-texnologiya Zamonaviy art terapiya texnikasining asosiy vazifasi salbiy tajribalardan ijobiy hissiyotlarga o'tishdir. Maktabgacha tarbiya muassasalarida qo'llaniladigan progressiv usullar bolaning ichki imkoniyatlarini ochib berish va uning samaradorligini maksimal darajada oshirish imkonini beradi. Shuningdek, art-terapiya bolaning xotirasi, diqqatini, nutqini, tasavvurini, tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi.

Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolaning ichki dunyosi, murakkab va xilma xildir. Bunday bolalarga qanday yordam berish, ko'rish, eshitish, atrof-muhitning xilma-xilligini his qilish, ularning "men" ini anglash, uni ochish va kattalar dunyosiga kirish, unda to'liq mavjud bo'lish va u bilan o'zaro aloqada bo'lish, o'zini rivojlantirish zarur va shartdir.. Ushbu muammolarning barchasini hal qila oladigan vosita - bu san'at, ya'ni art texnologiya usullari va psixokorreksiya tizimidir. Alohida ehtiyojli bolalar bilan ishlashda art terapiya usullaridan foydalanish vizual tasvirlar orqali bolalarning tashqi dunyo bilan o'zaro aloqalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa. Imkoniyati cheklangan bolalarga chet tilini, xususan ingliz tilini o'rgatishda art texnologiyalaridan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Art terapiya vositalari bolaning emotsional, kognitiv va kommunikativ rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ularning tilni tabiiy va qiziqarli tarzda o'zlashtirishga yordam beradi. Musiqiy va raqs terapiyasi, o'yin terapiyasi, drama va ertak texnologiyalari, qum terapiyasi hamda izotexnologiyalar bolalarning nutq faolligi, ijodkorligi va ijtimoiy moslashuvini kuchaytiradi. Shu bois, art texnologiyalarini chet tili ta'limiga integratsiya qilish imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun sifatli, inklyuziv va samarali ta'lim muhitini yaratishda muhim pedagogik vosita sifatida e'tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova Inklyuziv ta'lim: nazariya va metodika. Pedagogika universiteti hamda institutlarining barcha yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar, inklyuziv ta'lim sharoitida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar hamda ota-onalar uchun darslik. Chirchiq 2022.
2. D.S.Qaxarova Inklyuziv ta'lim texnologiyasi Toshkent. 2014
3. Р.Шомахмурдова, Д.Тулаганова, А.Бердиева. Жисмоний ривожланишида муаммолари бўлган болалар билан инклюзив ва махсус таълим тизимида олиб бориладиган коррекцион педагогик ишлар. Тошкент: ХТ «Розиқов О.Ж». 2007 й.
4. Р.Шомахмурдова. Инклюзив таълимнинг назарий ва амалий асослари. Тошкент: ХТ «Розиқов О.Ж». 2007 й.
5. J.G'Yuldashev S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. –T.: O'qituvchi, 2004.
6. A.D.Azizova Chet tilini imkoniyati cheklangan bolalarga o'rgatishning ahamiyati va usullari. "Raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda fan-ta'lim-ishlab chiqarish integrtatsiyasini takomillashtirish istiqbollari" ilmiy amaliy konferensiya. 2023-yil.22-noyabr.